

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA QO'SHMA SO'ZLAR TARKIBIDAGI KOMPONENTLARNING O'ZARO MUNOSABATLARI.

D. Usmonova  
S. Inomjonova

**Annotatsiya:** Qo'shma so'zning so'z birikmasidan farqi shundaki, qo'shma so'zning komponentlari morfema, so'z birikmasining komponentlari esa so'z bo'ladi. Shu sababli qo'shma so'zning komponentlari yaxlitligicha bir leksik ma'no ifodalaydi va komponentlari o'rtasida sintaktik aloqa bo'lmaydi.

**Kalit so'zlar:** affiks, suffiks, infiks, komponent, so'z birikmasi, kopulyativ va determinativ qo'shma so'zlar, sintaktik aloqa, egalik qo'shma so'zlar.

Qo'shma so'zlar tarkibidagi komponentlarning o'zaro munosabatlariga ko'ra uch guruhga bo'linadi:<sup>1</sup>

1. **Determinativ qo'shma so'zlar.**
2. **Kopulyativ qo'shma so'zlar .**
3. **Chatishtiruv usulidagi qo'shma so'zlar.**

**Determinativ qo'shma so'zlar** – bir komponentning ikkinchisining ma'nosiga aniqlik kiritib tobe so'z sifatida keladi.<sup>2</sup> Masalan: O'zbek tilida *uy egasi, kichik tadbirkor*. Uy – tobe so'z . egasi –hokim so'z, tadbirkor –tobe , kichik – hokim, gultuvak, gul –tobe, tuvak -hokim. Ingliz tilida ham determinative qo'shma so'zlarni uchratish mumkin. Misol uchun: *footpath* , foot- tobe, path –hokim, ear-ring, ear-tobe, ring –hokim, zookeeper , zoo- tobe, keeper- hokim. Har bitta yasalayotgan qo'shma so'z ma'lum ma'no jihat hisobga olingan holda yasaladi. Chunonchi, qaysidir narsaga tegishli, bog'liq bo'lish orqali: *gultuvak* (gul uchun idish), molqo'ra, tokqaychi, qiymataxta. Bunday klassifikatsiyani ingliz tilida ham uchratishimiz mumkin: *washing-machine, blood-vessel* (a tube through which bloods flows in the body). Ba'zi bir joylar bilan bog'liq bo'lishi: *suvilon* (suvda yashaydigan ilon), *tog'olcha, cho'lyalpiz, qo'qonarava*. Bunday turdagi so'zlarni esa biz ingliz tilida ham uchratdik: *zookeeper, postman, house-keeper, head-dress, ear-ring*.

**3.Kopulyativ qo'shma so'zlar** – har ikkala component teng huquqli bo'ladi. Masalan: o'zbek tilidagi *ota –ona, to'qnashuv*. Ingliz tilidagi *minister- president, café- restaurant* kabilar misol bo'la oladi.<sup>3</sup>

<sup>1</sup>Nodir Mr, N. (2020). Copulative compounds formed by prepositional interfixes in persian language. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(10), 71.

<sup>2</sup>Xayrulla, X., & Shaxzoda, X. (2020). Translations of Liao Zhai stories. *Academicia an international multidisciplinary research journal*, 10(12)

<sup>3</sup>Nuriddinov, N., Mirzakhmedova, K., Nishanbaeva, A., & Djafarov, B. (2021). Copulative compounds made by interfix الفوصل . *Инновационные подходы в современной науке*(pp. 65-69).

Ingliz tilida qo'shma so'zlar tarixiy tilshunoslikka ko'ra uch guruhga bo'linadi. Bular determinative, kopulyativ va egalik qo'shma so'zlar. Misol uchun:

- a) *Coffee cup*
- b) *Poet-doctor*
- c) *Greybeard*

Asosan bu uch guruhdagi so'zlarni quyidagicha izohlashimiz mumkin.

Birinchi so'zimiz *coffee cup* - bu determinativ qo'shma so'z, bu so'zning ma'nosi "Chashka yoki payolaning bir turi" degan ma'noda ishlatiladi. Bu so'z determinativ, chunki so'zning ikkinchi qismidagi ma'no chegaralanyapti ya'ni faqat *kofe* uchun *chashka* ma'nosida, unda boshqa ichimliklar ichilmaydi.


Ikkinchi so'zimiz *poet-doctor*, bu so'z kopulyativ qo'shma so'z, chunki ikki so'z o'rtasida koordinativ bog'lik bor ya'ni ikki so'z ham bir shaxsni bildiradi.

Uchinchi so'zimiz *greybeard*, bu egalik qo'shma so'z, chunki bunday so'zlarda birikmada nomlangan xususiyat bilan tavsiflangan shaxsni bildiradi: *greybeard* - bu savdo bilan bog'liq bo'lgan narsa ma'nosida ishlatilgan.

Ingliz tilida bunday munosabatdagi qo'shma so'zlar yasash jarayonining mahsuldorligi cheklanganligi uchun bu tilda bunday qo'shma so'zlarni ko'p uchratavermaymiz. Misol uchun: *bittersweet*, *sleepwalk*, *player-manager*, *secretary-treasurer*, *father-daughter*, *mother-son*.

Hozirgacha tadqiqotchilar uchta leksik kategoriya borligini aniqlaganlar. Birikma, ya'ni qo'shma ot natijasida hosil bo'lgan kategoriya, qo'shma fe'l va qo'shma sifat kategoriyalaridan iborat.

**1.Qo'shma ot kategoriyasi** - qo'shma ot bo'lib ikki yoki undan ortiq so'zlar birlashib ot so'z turkumining vazifasini bajaradi.<sup>4</sup> Ingliz tilida ko'p qo'shma otlar ba'zi hollarda boshqa so'z turkumlaridan yasaladi. Quyida qo'shma ot birikmasiga berilgan ingliz va o'zbek tilidagi birikmalar berilgan.




1-rasm

Diagrammadan ko'rinib turibdiki, A va B strukturada ikki tilda o'xshashlik bor, lekin V structure [fe'l + ot] shakli faqat ingliz tilida uchraydi o'zbek tilida

<sup>4</sup>Joshi, Manik. «Compound Words in English». A book By Manik Joshi. -2016 -P.45.

[ot + fe'l]( *kelintushdi, go'shtkuyar, kitobsevar*) ko 'rinishidagilarini uchratish mumkin. Lekin ingliz tilida bunday tuzilish(*train-spotting*) ham mavjud.*Chairperson* ( insonlarni boshqaruvchi) , *blue pencil* ( ko 'k rangli qalam), *swimming pool* ( suzish ko 'lmasi) ma'nosini bildiradi.

**2.Qo'shma fe'l kategoriyasi-** qo'shma fe'l bo 'lib kamida ikkita so'zdan yasali b fe'l vazifasini bajaradi. Bunday qo'shma so'zlar fe'l, ot , sifat so 'z turkumi va predloglardan yasaladi.<sup>5</sup>




2-rasm

Diagrammadan ko'rinib turibdiki, A, B va V jadvalda ikki tildaham qo'shma so'zlarning shakli bir xil , lekin O'zbek tilida hamma [fe'l + fe'l] shaklidan yasalgan qo'shma fe'llar qo'shma so'z hisoblanmaydi: *o'qib chiqdi, ko'rib bo'ldi*. Bu so'zlarda yangi leksik ma'no yo'q. Ingliz tilidagi *dry-clean*( kiyimlarni suv o'rniga kimyoviy moddalar bilan tozalash),*spoon-feed*( insonlarni ular o'ylagandek emas yordam berish yo 'li bilan o'qitish), *break-dance* ( akrobatik harakatlar) ma'nosini bildiradi.

**3.Qo'shma sifat kategoriyasi** - Qo'shma sifatlar ot singari ikki yoki ko'proq sifatning birikuvidan hosil bo'ladi.<sup>6</sup> Quyida ingliz va o'zbek tilida qo'shma sifatning birikuvining formasi berilgan.

2.7-rasm



Diagrammadan ko'rishimiz mumkinki, [sifat + sifat] formasi ikki til uchun xosdir , lekin [ predlog + sifat] ko'rinishi uchramaydi, garchi [ot + sifat] shakli o'zbek tilida bo'lmasada lekin [sifat + ot] formasi (*oq ko'ngil, kalta fahm, mayda gap* ) mavjuddir. *Deepblue* – “ Dengiz kabi ko 'k “ , *over-ripe* - “ Juda pishgan”,*sky -blue* – “Quyosh osmonda charaqlagan paytidagi yorqin ko 'k singari” ma'nosini bildiradi.

O'zbek tilidagi ochpushti – pushti rangning xiraligini bildiradi.

<sup>5</sup>МадалиевБ. Ҳозиргиўзбектилидақўшмасўзлар//Ўзбектиливаадабиёти. – Т., 1966. – Б. 104.

<sup>6</sup>МаматовН. Қўшмасўзларбилансоддасўзларнингўзаромуносабатимасаласигадоир//Ўзбектиливаадабиёти. – Т., 1982. – № 2. – Б. 89-91.

**3.Chatishuv usuli bilan yasalgan qo'shma so'zlar** - Bu usulda yasalgan qo'shma so'zlar tashqi ko'rinishdan so'z birikmasi, xatto gapga o'xshaydi, lekin bo'laklarga bo'linmaydigan tushunchaga ega bo'lib bir urg'uda o'qiladi.

Masalan : ingliz tilida bunday so'zlar "**gibrid qo'shma so'zlar**" deyiladi:<sup>7</sup>  
*Fatabulous( fantastic+ fabulous)*" dahshatli";

*Prettyful ( pretty+ beautiful)* " chiroyli";

*Chillax ( chill+ relax)* "juda ham sokin";

*Awesomtacular( awesome + spectacular)* " juda ajoyib" ma'nolarni bildiradi.

O'zbek tilida bunday qo'shma so'zlar "**duragay qo'shma so'zlar**" deb nomlanadi.<sup>8</sup>

*Olovbardoshlik ( fizika –matematika);*

*Baqaterak(botanika )*

*Kvarsgenerator ( fizika –matematika)*

*Huquqiy norma ( yuridik);*

Yuqoridagi misollardan ko'rishimiz mumkinki ikkita boshqa- boshqa qatlamlarga oid so'zlarning birikuvidan bunday qo'shma so'zlar ikki tilda ham yasaladi bu esa ularning o'xshash jihatlaridan biriga kiritishimiz mumkin bo'ladi, chunki ikki tilda o'xshash va farqli tomonlarini ko'rishimiz mumkin va farqlash oson bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAT RO'YXATI:

1. Бондаренко В.А. Фонетическая структура инновационных сложных слов современного английского языка (экспериментально–фонетическое исследование): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Киев, 2001. – 20 с.

2. Бортничук Е.Н. Словообразование в современном английском языке. – Киев: Высш. шк., 1988. – 264 с.

3. Буранов Дж.Б. Сравнительная типология английского и тюркских языков. – М.: Высш. шк., 1983. – 267 с.

4. В. Лингвокультурология (Теория и методы).–М.: Изд–во РУДН, 1997.–331 с.

5. Воробьев В.В. Лингвокультурологическая парадигма личности. – М.: Изд–во «Ладомир», 1996. – 286 с.

6. Воробьев В.В. Лингвокультурология. – М.: Изд–во РУДН, 1997. – 331 с.

7. Воробьев В.В. Сопоставительная лингвокультурология и межкультурная коммуникация // Актуальные проблемы преподавания

<sup>7</sup>Benczes, Reka. CreativeCompoundinginEnglish. Amsterdam : John Benjamins Publishing Company -2006 –P.76.

<sup>8</sup>Маматов Н. О классификации сложных слов в узбекском языке. – Т.: Советская тюркология, 1976. – № 4. – С. 321.



русского языка и литературы на современном этапе: Матер. Междунар. науч. конф.–Самарканд, 2002.–С. 6–14.

**8.** Гак В.Г. К типологии лингвистических номинаций // Языковая номинация: Общие вопросы.– М., 1977.–С. 230–239.

**9.** Гальперин И.Р. Информативность единиц языка.–М.: Высшая школа, 1974.–175 с.

**10.** Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Наука, 1981. – 139 с.

**11.** Фуломов А., Кўнғуров Р., Тихонов А. Ўзбек тилининг морфем луғати.– Тошкент: Ўқитувчи, 1977.–461 б.

**12.** Гулямов А. О правописании сложных слов в современном узбекском языке//Ўзбек тили ва адабиёти – Т., 1953. – С. 14–16.  
Ибрагимходжаев И.И. Сложение как способ образования новых и окказиональных слов в современном английском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 1979. – 25 с.

